

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO'LIMI  
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2024-11/4  
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2024**

**МУНДАРИЖА**  
**FILOLOGIYA FANLARI**

<b>Abdujalilova M.A.</b> Diachrony of terms for household items in english and uzbek languages	7
<b>Abdullayeva D.B.</b> The evolution of english literature: a journey through periods and movements	9
<b>Abdullayeva Sh.A.</b> Jurnalistikada axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik	12
<b>Abdullayeva G.A.</b> Mediadiskursning lingvokognitiv masalalari	14
<b>Abrayeva Sh.E.</b> Lotincha va yunoncha morfemalarning differensial taqsimlovchi xarakteristikalari va ularning nutqda qo'llanilishi	17
<b>Adilova F.Sh.</b> Xayriddin Sultonning “Ishonch telefoni” qissasida zamonaviylik va badiiy til	19
<b>Adxamova Sh.</b> Qadimgi ingliz tilidagi o'lchov birliklari leksemalarini tahlil qilish	21
<b>Ahmedova M.</b> Irrigatsiya va melioratsiya sohasiga doir birikmali va murakkab so'z shaklidagi terminlar tavsifi	24
<b>Akhmedova S.H.</b> The significance of antroponyms and toponyms in uzbek and english fairy tales: a study of Cinderella, Snow White, Rapunzel, and Susanbil	27
<b>Allayorova Sh.P.</b> Ingliz va o'zbek tillarida perifrazalarning lingvopragmatik xususiyatlari	30
<b>Anorqulova O.N.</b> “Oila” konsepti doirasiga kiruvchi maqollarning kognitiv tahlili	33
<b>Aslonov F.B.</b> Ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarda nishonlanadigan bayramlar, ularga oid leksik birliklar hamda ularning ifodalanishi	35
<b>Azimova D.M.</b> Tilshunoslikda buxgalteriya hisobi va audit terminlarining ilmiy- nazariy qarashlari	39
<b>Bobojanova Sh.Y.</b> Xorazm viloyatidagi o'g'uz shevalari gastronomik leksikasi- tadqiqot obyekti sifatida	42
<b>Boboyeva M.X.</b> So'z birikmasining polifunksional mohiyati	45
<b>Boymatova D.B.</b> Hikmatli so'zlarda aksiologik konsept ifodasi	49
<b>Burxonov B.B.</b> O'zbek tilshunosligida kasbiy diskurs tushunchasi tavsiflari	52
<b>Buzrukova M.</b> Tarjima madaniy transfer sifatida: xalqaro turistik diskursda tarjimaning kommunikativ-pragmatik paradigmasi	54
<b>Dadabayeva F.</b> XXI asr o'zbek adabiyotida qodiriyshunoslik masalalarining o`rganilishi	58
<b>Dalieva M.X.</b> Turkiston ta'lim tizimida jadidlarning ahamiyati: mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlili	61
<b>Do'simov Z.</b> O'zbek tili leksikasi shakllanishida tarixiy-etimologik qatlamlarning o'rni masalasi	64
<b>Ergashev M.R.</b> Zamonaviy terminografiyaning o'ziga xos jihatlari	66
<b>Eshankulova Sh.X.</b> O'zbek va turk xalqlarining mehmono'stligini ifodalovchi maqollarning lingvokognitiv tahlili	69
<b>Eshmamatov R.T.</b> Z.Freyd nazariyasi va uning badiiy asarlarda aks etishi	73
<b>Eshmuratova D.U.</b> Religionimik birliklarning tillararo tasnifi	75
<b>Eshmurodov M.</b> “Bek” davlatchilik atamasining tarixiy ildizlari	78
<b>G'ulomova R.</b> O'zbek qarg'ishlarning sotsiolingvistik tahlili	81
<b>Haydarov A.A., Sattorova Sh.</b> So'z san'atkolarining grafik vositalardan foydalanish mahorati	86
<b>Haydarov A.A., Tosheva F.B.</b> National-cultural similarities and differences in english and uzbek fairytales	89
<b>Haydarov A.A.</b> Urg'uning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari	92
<b>Haydarova N.A.</b> Tarjima jarayoniga diskursiv yondashuv xususida	95
<b>Ibragimova N.I.</b> Paremies and their stages of research in linguistic	99
<b>Jabborova F.M., Mamatova F.M.</b> The concept of «hospitality» as a subject of linguocultural research	102
<b>Jabborova Z.</b> The main usage of nonverbal expressions in fiction work	105

aniqlanishi mumkin. Masalan, biror kishi so'zlovchini qo'rqitib yuborsa, hayratlantirsa, uyaltirsa "Qurib ketmagure", "O'limgure" deya salbiy ma'nodagi so'zni inkor orqali ijobiy ma'noda ishlatishadi.

Qarg'ishlar, nafaqat insonlar nutqida balki o'zbek xalq ertaklarida, badiiy asarlarida ham uchratishimiz mumkin.(O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari", G'ofur G'ulom "Shum bola") Ammo, og'zaki nutqdagi qarg'ishlarning emotsiional holati yozuvdagidan ancha yuqori hisoblanadi. Ko'rib turibmizki, sotsiolingvistik tahlil muhim axborot manbaidir. Xulosa qilib aytganda, til ijtimoiy me'yor va qadriyatlarning aksi va ta'sir etuvchisidir. U ta'lim, siyosat va ommaviy axborot vositalari kabi turli ijtimoiy kontekstlarda muhim rol o'ynaydi, jamiyat e'tiqodlari, munosabatlari va kuch dinamikasini shakllantiradi. Tilning o'zgarishi ijtimoiy omillar, jumladan, ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar ta'sirida bo'lgan tabiiy jarayondir. Til evolyutsiyasini shakllantirishda jamiyatning til o'zgarishiga munosabati va qabul qilinishi muhim hisoblanadi. Til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunish inklyuziv til amaliyotini targ'ib qilish va ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantirish uchun juda muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Aba, Oussama. (2019). Fergyusonning diglossiyaning 9 mezoni. Ijtimoiy lingvistik tadqiqotlar.
2. Azizov, A. U. B. (2011 yil, mart). Yaponianing Markaziy Osiyo tashqi siyosati matnlari kontseptsiyasining talqini: nazariya va amaliyot. Xalqaro va ilg'or yapon tadqiqotlari jurnali, 3, 51–60.
3. Bodman, J. va Ebsworth, M. (1988). Xudo sizning ne'matlaringizni ziyoda qilsin: ona va ona tili bo'lмаган ingliz tilida so'zlashuvchilarining minnatdorchilik izhorlari. O'zaro oqimlar, 15 (yoz), 1-21.
4. Charlz A. Fergyuson (1996) Sotsiolingvistik istiqbollar: Jamiyatdagi til haqida maqolalar, 1959–1994. Ed. Thom Huebner tomonidan. (Oksford ijtimoiy lingvistika bo'yicha tadqiqotlar.) Oksford va Nyu-York: Oksford universiteti nashriyoti.
5. Chomsky, Noam.(1979) Til haqida: Til va mas'uliyat va til haqida mulohazalar. Nyu-York; London: Yangi matbuot.
6. Chomskiy, Noam.(2006) Til va ong. 3 nashr. Nyu-York: Kembrij universiteti nashriyoti.
7. Durian, Devid. (2011). Rajend Mestri, Joan Swann, Ana Deumert va Uilyam Leap. Sotsialingvistika bilan tanishtirish. 2-nashr. Edinburg: Edinburg universiteti nashriyoti.
8. Fergyuson, C. A. (1959). Diglossiya. WORD, 15, 325-340.
9. Fishman, Joshua A. (1972) Til va millatchilik: ikkita integral insho. Rouli, Massachusetts: Nyuberi uyi.
10. Fishman, Joshua A. (1972) Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarda til: Joshua A Fishmanning insholari. Stenford, Kaliforniya: Stenford universiteti matbuoti.
11. Ijtimoiy tilshunoslikning asoslari; etnografik yondashuv. (1974). 2024-yildan olingan
12. Gumperz, Jon Jozef. (1982) Diskurs strategiyalari. Kembrij [Kembridgeshire]; Nyu-York: Kembrij universiteti nashriyoti. 1982
13. Hymes, D. H. (1974) Ijtimoiy tilshunoslik asoslari: etnografik yondashuv. Filadefiya: Pensilvaniya universiteti matbuoti.
14. Hymes, D. H. (1975) Urushdan oldingi Praga maktabi va urushdan keyingi Amerika antropologik
15. Hymes, D. H. (1982) Bekorga men sizga aytmoqchi bo'ldim: Amerika tubjoy amerikalik etnopoetikasi insholari.
16. Hymes, D. H. (ed.) (1964) Madaniyat va jamiyatdagi til: tilshunoslik va antropologiya bo'yicha o'quvchi. Nyu-York: Harper va Rou

**UO'K 81-13**

#### **SO'Z SAN'ATKORLARINING GRAFIK VOSITALARDAN FOYDALANISH MAHORATI**

*A.A.Haydarov, prof., Buxoro davlat universiteti, Buxoro  
Sh.Sattorova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ijod qilgan shoir hamda yozuvchilarining o'z asarlarida fonografik uslubiy vositalardan foydalanish mahorati yoritilgan, shuningdek, ularda ifodalangan uslubiy xususiyatlar misollar asosida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** fonostilistika, grafik stilistika, fonografiya, badiiy matn, ishoraviy sinonimiya, tashbeh, anafora, alliteratsiya, qofiya, onomatopeya, epifora, fonika.

**Аннотация.** В данной статье освещено мастерство использования фонографических стилистических средств в своих произведениях поэтов и писателей, творивших на английском и узбекском языках, а также на основе примеров выделены стилистические особенности, выраженные в них.

**Ключевые слова:** фоностилистика, графическая стилистика, фонография, художественный текст, символическая синонимия, аллюзия, контраст, анафора, аллитерация, рифма, эпифора, фонетика.

**Abstract.** In this article, the skill of using phonographic stylistic devices in the works of English and Uzbek poets and writers is analyzed, besides, the stylistic features expressed in them are highlighted on the basis of examples.

**Key words:** phonostylistics, graphic stylistics, phonography, artistic text, ellipsis, symbolic synonymy, allusion, contrast, anaphora, alliteration, rhyme, epiphora, phonics.

## K

i  
**Dolzarblii.** Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta'sirini,  
s  
h  
.

uri so'z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san'at darajasiga ko'tara olishida uning tili,

**Adabiyotlar sharhi.** Asarlarida turli xil fonografik vositalardan unumli foydalangan yozuvchi va shoirlar, avvalo, har bir til uchun yozma nutqni idrok etish, fikrni boshqalarga tushunarli tarzda yetkazish va tinglovchiga aynan yozuvchi istaganidek ma'noni yetkazishni maqsad qilishgan. O'zbek yozuvchi va shoirlardan A.Navoiy, A.Cho'lpon, H.Xudoyberdiyeva, A.Muxtor, A.Qodiriy, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, S.Ahmad; ingliz adiblardan E.Dikinson, T.S.Eliot, V.Folkner, M.Shelli, M.Gerron, E.Ch.Jons, J.D.Salinger, S.Makkarti, T.Morrisonlarning asarlaridan namunalar keltirilgan va ularning tahliliga bat afsil to'xtalib o'tilgan.

**Tahlil va natijalar.** Bilamizki, tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ular bir-biriga manba beruvchi sohalar hisolanadi. Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarda qo'llangan lisoniy birliklarning (fonetik, leksik, morfologik) badiiy-estetik vazifalarini, tilning emotsiyal-ekspressiv vazifasini tadqiq etadi. Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. She'riy matnda nutq tovushlarining badiiy-estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy jihatdan nooddatiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riy matnlarda, asosan, fonetik vositalarning alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi usullardan foydalilanadi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush

tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Nutq tovushlarining (aynan) undosh tovushlarning badiiy matnda poetik jihatdan qo'llanishi, ularning takrorlanishi natijasida ham sodir bo'ladi. Badiiy nutqning ohangdorligi va ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladigan fonopoetik vositalar ichida ana shunday tovushlar takrorining o'rnini beqiyos hisoblanadi. I.B.Golub «Hozirgi zamon rus tili stilistikasi» nomli asarida tilshunoslikning fonetik sathni o'rganuvchi bo'limlari xususida mulohaza yuritar ekan, fonika va fonostilistikani bir-biridan farqlaydi. "Shuningdek fonika deyilganda nutqni tovush jihatdan tashkil etish, ya'ni fonetik sathdagi til vositalarini ma'lum stilistik maqsadni ko'zlab tanlash va qo'llash tushuniladi. Fonika deyilganda tilning fonetik sathidagi stilistik ahamiyatga ega bo'lган vositalar ham tushuniladi" tarzidagi fikrini qo'shimcha qiladi[1]. O'zbek tilshunosligida fonostilistika sohasini chuqur o'rgangan tilshunos olim S.Karimov ham o'z tadqiqotlari natijasida haqiqatan fonika va fonostilistika o'rganish obyekti nuqtai nazaridan muayyan farqlarga ega ekanligini qayd etadi. Tilshunos olim, "fonostilistika umuman nutqning fonetik jihatdan shakllanishida ma'lum stilistik maqsadlar ko'zda tutilgan jihatlarni, shu bilan birgalikda, nutq tovushlarning funksional-stilistik differensiatsiyasini, ya'ni uslublararo xoslanish va qo'llanish xususiyatlarini o'rgansa, fonika poetik va prozaik matnlarni tovush jihatdan

tashkil etuvchi ritm, alliteratsiya, tovushga taqlid, rifma, assonans va hatto, kulgini yoki satirik samaradorlikni hosil qilish maqsadida qilingan nostandart talaffuzlarni” ham o’rganishi haqida ta’kidlaydi[2].

Fonografik vositalar ekspressiv vositalarning og’zaki nutqda intonatsiya va urg’u orqali ifodalangan hissiyotlarni yozma shaklda ifodalashda qo’llanadigan vositalardir. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o’ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo’lish, xafa bo’lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching kesatiq, olqish, so’roq, ta’kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo’llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar. Unli va undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ularning cho’zib talaffuz qilinganligi, taajjub, hayajon, belgining ortiqligi, davomiyligi kuchliligi kabi ma’nolar tushuniladi. Masalan,

Belgining kuchsizligi: *Ortiq jizzaki ko’rinmaslik uchun bos-i-iq tovush bilan dedi...* (P.Qodirov).

Belgining ortiqligi: *Uzo-oq yo’l, ahyo-onda bir keladi, qato-or imoratlar, o’yla-ab tursam, o’g’lim, dunyoni ishi qiziq.* (A.Muxtor)

-A-a-a, o’sha sizmidingiz, buni qarang-a, tanimapman. *Uyimizga yana bir kelgan ekansiz. Yo’qligimni qarang-a.* (S.Ahmad)

*Men o’zimning odmi plashimni ham devordan daromad qiiib yasalgan shifonerga ildim. - O-o! - deb yana o’zi ichkariga yo’l tortdi Tavakkal –Yaxshi-ii... A, Gulsara? Bir kishiga bo’ladi-da!* (Sh.Xolmirzayev)

Belgining ortiqligi - *Siz aslida uchchiga chiqqan muttaham ekansiz!* (Gazetadan);

Harakatning oniyligi - *Salimani ko’rishi bilan Ziynat xola zippilab ko’zdan g’oyib bo’ldi.*

Ovoz kuchining balandligi - “*Bummm*” degan tovush eshitildi-yu, ko’kni chang- to’zon qopladi.

Harakatning davomiyligi - *Yarim soatlik qonli "g’ov-v-v-v, g’u-v-v-v, ov-v-v-v-v, ov-v-v-v»dan so’ng Mallaxonning davangisi mag’lub bo’lib, faje bir suratda yaralandi.* (A.Qodiri).

**Grafon** deb ataladigan usuldan badiiy asarda qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og’zaki - jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalaniladi. Ayrim o’rinlarda kulgi qo’zg’atish maqsadida ham so’zlar atayin buzib talaffuz qilinadi va o’sha tarzda yoziladi. Masalan:

-*Kotibadan, kirsam mumkinmi, deb so’rash kerak. -Jinni bo’ldingmi, Ne’mat? -Men sizga Ne’mat emasman, o’rtoq Babbayev bo’laman, o’rtoq Xajjayip.* (S.Ahmad)

-*Xo’p, bo’pti. Uning oti Zulfiqor, fomilasi... -aytaveraymi, deb unga qaradi.* (S.Ahmad).

**Tardi aks.** Tardning ma’nosи “qaytarib berish”, “uzoqlashtirish”, aks esa “zid”, “teskari” ma’nolarini beradi. Bu san’atda takrorlanuvchi so‘zning o’rni qat’iy emas. Takrorlanuvchi so‘z ikkidan ortiq, o’rni almashib, takror holatda keladi.

“*Quzg’abon ko’nglum aloxuna alomon ayladi*

*Ne alomon aloxonu, xonemonim o’rtadi*” (Alisher Navoiy).

**Alliteratsiya.** She’riy nutqda misralar, undagi so’zlar ham bo’g’inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo’llanishiga alliteratsiya deyiladi[3]. Alliteratsiya badiiy asarlar mazmuniga silliqlik, yoqimlilik, ijobiy munosabat, intonatsion butunlik qo’shib, unga jarangdorlik bag’ishlaydi.

“So we beat on, boats against the current, borne back ceaselessly into the past.”

“I give you the mausoleum of all hope and desire; I give it to you not that you may remember time, but that you might forget it now and then.” (W.Faulkner)

**Anafora** usulida asosan misralar boshida so’z yoki so’z birikmasi takrorlanib keladi. Antik dunyo mutafakkirlari gapning doimo bir so’z bilan boshlanishi nutqqa joziba kiritadi, uning tantanavorligini va hayotiyligini ta’minlaydi deb hisoblaganlar. Shuning uchun anaforaga nutqning bezagi, tashqi belgisi deb emas, balki ma’noni kuchaytiruvchi vosita deb ham qarash kerak. Anaforada bir misra, abzats va gap boshida bir xil takrorlanuvchi konstruksiyalar ishlatiladi. Bular so’z, so’z birikmasi, gap shaklida bo’lishi mumkin. Masalan:

*Birga tug’ilmoq bor, birga turmoq yo’q.*

*Qaysi bir ozorin aytay jononima ag’yorning,*

*Qaysi bir og'ritganin ko'nglimni dey dildorning* (Z.M.Bobur).

*"When he woke in the woods in the dark of the night and he was cold... when he woke in the woods in the dark of the night..."* (C.McCarthy)

*"If you want to fly, you have to give up the things that weigh you down."* (T.Morrison)

**Epifora** — lotincha so‘z bo‘lib, “epi”-keyin, “foros”-ma’no demakdir. So‘zlar oxirida unli yoki undosh tovushlarning, misralar, gaplar, abzatslar oxirida bir xil konstruksiyalaming takrorlanishiga epifora deyiladi[3]. Anafora og'zaki va yozma nutqda, epifora esa, asosan, yozma nutqda qo‘llaniladi:

*Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat va mehnat nonini ko'ramiz baham.* (G ‘afur G ‘ulom)

*"I hope she'll be a fool—that's the best thing a girl can be in this world, a beautiful little fool."* (F.S.Fitzgerald)

**Xulosa.** Grafik o‘zgarishlar nafaqat talaffuzning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, balki urg‘u berilgan so‘zlarni ta’kidlash, ta’kidning intensivligini ifodalash uchun ishlataladi. Nutqda fonetik vositalarning uslubiy vazifa bajarish maqsadida qo‘llanilishi, umuman, badiiyatdan, qolaversa, shoir yoki yozuvchining ijodiy mahoratidan kelib chiqadigan zarurat mahsulidir. Ya’ni bu vositalarning til birliklarini badiiy-estetik maqsadga xizmat qildirishga bo‘ysundirishi, shu yo’lda ayrimlarining badiiy uslubga xoslanishi ularning bu uslubdagi o‘rnini yana ham mustahkamlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Golub I.B. Stylistics of the modern Russian language. - M.: "Higher School", 1986.- P.259- 260.)
2. Karimov S. O‘zbek tilining fonetik stilistikasi. –Samarqand, 2016.- B.15.( Karimov S. Phonetic stylistics of the Uzbek language. -Samarkand, 2016.- B.15.)
3. A.Hoziyev. Lingvistik belgilarning izohli lug’ati, - T: 1985.- B.30.
4. Yaxshiyeva G. O‘zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. – T., “Fan” nashriyoti.1996.-36b.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.- T: Fan, 2010.
6. Haydarov A.A. Yozuv bilan bog‘liq uslubiy xususiyatlar.(ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami).-Buxoro: 2020.- B.19-22.( Haydarov A.A. Methodological features related to writing. (a collection of scientific and practical conference materials).- Bukhara: 2020.- P.19-22
7. Galperin I.R. Stylistics. – M.: Higher School, 1977. – 328 p.; Leech G.N. Principles of Pragmatics. – London, NY: Longman, 1983. – 250 p.
8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.:СЭ, 1966. – 606 с.
9. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – М.: Наука, 1974. – С. 44.
10. Хайдаров А.А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши: филол. фан. номз. дисс. – Т., 2009. – Б. 14

UDC 81-13

## NATIONAL-CULTURAL SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN ENGLISH AND UZBEK FAIRYTALES

A.A.Haydarov, prof., Bukhara State University, Bukhara

F.B. Tosheva, Master’s degree, Bukhara State University, Bukhara

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek ertaklaridagi milliy-madaniy o‘xshashliklar va farqlar tahlil qilingan. Ingliz ertaklarida ,asosan, individuallik, jasorat va aql-zakovat ulug‘lanadi, o‘zbek ertaklari esa jamiyat, oila va an‘anaviy qadriyatlar ahamiyatini ko‘rsatadi. Har ikki madaniyatga oid ertaklarda yaxshilik va yomonlik, ezhulik va yovuzlik, sevgi, do‘stlik vaadolat kabi umumiy tushunchalar mavjud bo‘lib, ular orqali jamiyatning asosiy qadriyatları aks ettiriladi. Maqolada bu ertaklar orqali milliy o‘ziga xoslikni ifodalash va o‘zaro madaniy tushunishni o‘rganishga yordam berilishi e’tirof etiladi.

**Kalit so‘zlar:** milliy madaniyat, madaniy farqlar, ertaklar, ingliz ertaklari, o‘zbek ertaklari, qahramonlar, ramziylik, an'analar, xalq og'zaki ijodi, axloqiy qadriyatlar

**Аннотация.** В статье рассматриваются национально-культурные сходства и различия в английских и узбекских сказках. Английские сказки часто подчеркивают индивидуализм, смелость и остроумие, в то время как узбекские сказки акцентируют внимание на важности сообщества, семьи и традиционных ценностей. Обе культуры имеют общие темы, такие как борьба добра и зла, любовь, дружба и справедливость, отражающие ключевые ценности их обществ. Статья помогает понять, как через сказки выражается национальная идентичность и способствует межкультурному пониманию.